



## ILK O'SPIRINLIK DAVRI PSIXOLOGIYASI

Shokirova Rayhona Sanjar qizi,  
Ulug'berdiyeva Marjona Anvar qizi,  
Shodmonova Sayrigul Rahmon qizi  
TerDPI talabalari

**Annotatsiya:** *Ilk o'spirinlik davrining psixologik xususiyatlari. O'quv faoliyati va aqliy rivojlanishi, kasb tanlash va kasbga yo'naltirish haqidagi bilim ko'nikma va malakalarni shakllantirish. Ilk o'spirinlik davrining psixikasining harakatga keltiruvchi kuchlar, inqiroz, o'spirinlik davridagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar beriladi.*

**Аннотация:** *Психологическая характеристика раннего подросткового возраста. Учебная деятельность и психическое развитие, формирование знаний, умений и компетенций о выборе профессии и ориентации на профессию. Движущие силы психики раннего подросткового возраста, кризис, образование в подростковом возрасте. Приводятся сведения об изменениях.*

**Annotation:** *Psychological characteristics of early adolescence. Educational activity and mental development, formation of knowledge, skills and competencies about choosing a profession and orientation to a profession. Driving forces of the psyche of early adolescence, crisis, education in adolescence information about changes is provided.*

**Kalit so'zlar:** *O'spirin, o'z kuchiga ishonish, faollik, tetiklik, axloqiy xislatlar-jamoatchilik, aql-zakovat, hazilkashlik va yangilikni his etish, mehnatsevarlik, samimiylik.*

**Ключевые слова:** *Подросток, уверенность в себе, активность, свежесть, моральные качества - коммуникабельность, интеллект, чувство юмора и новизны, трудолюбие, искренность.*

**Key words:** *Adolescent, self-confidence, activity, freshness, moral qualities - community, intelligence, sense of humor and novelty, hard work, sincerity.*

Ilk o'spirinlik davrining psixik xususiyatlari: Ilk o'spirinlik davri "kamolot bo'sag'asi" deb ta'riflanadi. Bu kamolot bosqichi fiziologik, psixologik va ijtimoiy chegaralarni o'z ichiga oladi. Psixologiya fani o'spirinlik muammosini kompleks o'rganishni da'vat etadi.

Bu juda qiyin masala, chunki psixofiziologik taraqqiyot sur'ati bilan uning bosqichlari ijtimoiy yetilish muddati bilan hamma vaqt ham to'g'ri kelavermaydi. Akseleratsiya natijasida bugungi ilk o'spirinlarning taraqqiyoti avvalgi avlodlarga nisbatan o'rtacha 2-3 yil avval yetilmoqda. Fiziologlar bu jarayonni ikkinchi darajali jinsiy belgilarning paydo bo'lishiga qarab, 3 ta bosqichga ajratadilar:

I bosqich: prepubertat;

II bosqich: pubertat;

III bosqich: postpubertat.



Akseleratsiya munosabati bilan o'spirinlik Yoshining chegarasi endi 15-16 dan 18 yoshgacha bo'lmoqda. Demak, o'spirinlik ham oldin boshlanadi. Lekin, bu taraqqiyot davrining konkret mazmuni birinchi navbatda ijtimoiy sharoitlar bilan belgilanadi. Yoshlarning jamiyatda tutgan o'rnini, ularning mavqei, ular egallaydigan bilimlarning hajmi va bir qator boshqa faktorlar ijtimoiy sharoitlarga bog'liqdir.

Ilk o'spirinlik yoshidagi bolalar bu 15 yoshdan 17-18 yoshgacha bo'lgan akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilaridir. O'spirinlik – bu odamning fuqaro sifatida shakllanishi, uning ijtimoiy jihatdan yetilishi, o'z taqdirini o'zi hal qilishi, ijtimoiy hayotga faol ishtirok etishi davri, fuqaro va vatanparvarning ma'naviy sifatlari tarkib topadigan davrdir. Faol ijtimoiy hayot, o'qishning yangi xarakteri yigit va qizlarda dunyoqarashning shakllanishiga, ularda mustaqillik va burch hissining tarkib topishiga, bilimning turli sohalarida ularning ijodiy qobiliyatini avj oldirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Rus psixologi L.I.Bojovich ilk o'spirinlik davrida shaxs motivatsion sohasining rivojlanishiga urg'u beradi: o'quvchilarning hayotda o'z o'rnini va ichki pozitsiyasini aniqlashi, dunyoqarashning shakllanishi va uning bilish faoliyatiga, o'z-o'zini anglashga va axloqiy ongga ta'siri nazarda tutiladi.

Ilk o'spirinlar mustaqil hayot sohasida yaqin istiqbolga ega bo'lar ekanlar, o'zlarining hayot yo'llarini belgilab olishga, bundan buyongi mehnat faoliyatlarining aniq istiqbollari aniqlab olishga, o'zlarining kelgusi ixtisoslarini tanlashga intiladilar. Shu munosabat bilan kasb-hunarga oid qiziqishlar tarkib topadi va yanada barqarorroq bo'lib qoladi, yigit va qizlar o'z kelajaklari haqida jiddiyroq o'ylay boshlaydilar.

Ilk o'spirinlik davridagi jismoniy rivojlanish ustida to'xtalib o'tamiz, bu narsa quyidagi sabablarga ko'ra muhimdir. Jismoniy rivojlanishning ayrim xususiyatlari ilk o'spirin shaxsining ayrim sifatlari rivojlanishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi va uning bundan keyingi hayot faoliyati sohasidagi imkoniyatlarini bir qadar belgilab beradi. Birinchidan bu o'rinda kasb tanlash nazarda tutiladi, bu esa ma'lum darajada yigit va qizlarning individual jismoniy tuzilishi xususiyatlariga ham bog'liqdir. Ikkinchidan, jinslarning o'zaro mayli ta'sir ko'rsatadiki, bunda jismoniy rivojlanish xususiyatlari ancha muhim rol o'ynaydi. O'zining jismoniy kuchini va jozibadorligini, sog'lomligi va mukammalligini his etish yigit va qizlarda o'ziga ishonch, dadillik, tetiklik, optimizm va xushchaqchaqlik singari sifatlarning tarkib topishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ko'krak qafasining hajmi kengayadi, skelet, naychasimon suyaklar qattiqlashadi, to'qimalar va a'zolarining shakllanishi va funksional taraqqiyoti tugallanadi. Odatda bu yoshda yurak va qon tomirlarning rivojlanishida o'smirlarga xos bo'lgan notekislik endi tekislashadi, qon bosimi baravarlashadi, ichki sekretsiya bezlari bir me'yorda ishlay boshlaydi. Nerv sistemasining va xususan, miya rivojlanishidagi o'zgarishlar ma'lum bo'lib qoladi. Lekin, bu o'zgarishlar miya massasining ortishi hisobiga emas, balki miyaning ichki hujayralari tuzilishining murakkablashuvi hisobiga ro'y beradi.

Shunday qilib, xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, ilk o'spirinlik yoshi emotsional holatlarni ifodalash usullari va emotsional reaksiyalarning deffirensiallashishini hamda o'z – o'zini nazorat qilish va o'z - o'zini boshqarishning ortishini kuzatish mumkin. Ilk o'spirinlarning kayfiyati o'smirlarga nisbatan barqaror va anglangan hamda ijtimoiy sharoitning keng doirasiga mos bo'ladi. Doimo hissiyot vujudga keltiradigan shaxsiy muhim



munosabatlar doirasining kengayishi oliy hislarning rivojlanishida namoyon bo'ladi. Axloqiy norma va tamoyillarning ma'lum tizimini o'zlashtirish jamiyat va boshqa odamlar oldida ma'suliyat hissiy, hamdardlik qobiliyati, do'stlik va muhabbat ehtiyoji, o'rtoqlik hissi va axloqiy - siyosiy hislar kabi yuksak axloqiy hislarga aylanadi. Ilk o'spirin tomonidan qabul qilingan xulq-atvor normalarining buzilishi unda aybdorlik hissini vujudga keltiradi. Shu bilan birga unda estetik hislar doirasi ham kengayadi. Ilk o'spirinlarda intellektning rivojlanishi bilan birga hazil - mutoyiba hissining ham rivojlanishini ta'kidlash joiz. Intellektual va praksis hislar ham sezilarli rivojlanadi. Sodda bolalarcha qiziquvchanlik tafakkur jarayonidan ongli zavqlanish, qiyinchiliklarni yengishdan quvonish, ijodga ongli intilish va boshqalarga aylanadi. Shunga ko'ra har kim qobiliyatiga yarasha kasb hunar tanlasa, bu sohada muvaffaqiyatli mehnat qilsa, ijtimoiy turmush taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan bo'ladi. Bu ko'nikma va malakalari ularning kelgusidagi kasbiy faoliyatlari bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Har qanday kasbiy ko'nikma va malakalarning o'sishi, avvalo, o'spirin intellektining umumiy rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham bu davrda o'spirinlar intellektining rivojlanishiga alohida e'tibor berish lozim. O'zining kasbiy taqdirini tasodifan yoki noto'g'ri hal etilishi murakkab ichki kechinmalarga, ikkilanishlarga, ziddiyatlarga olib kelishi mumkin. Kasb tanlash vaqtida ilk o'spirinlar o'z moyilligi va qobiliyatlarini shaxsiy sifatlar, xususan, nerv sistemasining tipi, analizatorlar xususiyati, emotsional - irodaviy sifatlarini ham hisobga olishlari zarur.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Imonova, M., & Tojiyeva, D. (2024). PSIXOLOGIK XIZMATNING INSON HAYOTIDA TUTGAN O'RNI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 950-952.
2. Imonova, M., & Muhammadova, D. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO'RSATISHNING USTUVORLIGI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 907-912.
3. Imonova, M. B. (2023). Oila tinchligi-jamiyat faravonligi asosi. Finland academic research science publisher, 1148-1151.
4. Иманова, М. Б. (2021). ШАХС ХАРАКТЕРИ АКЦЕНТУАЦИЯСИ ВА ДЕСТРУКТИВ ХУЛҚ-АТВОР. Academic research in educational sciences, 2(11), 1399-1403.
5. Imonova, M. B. (2023). Causes of Suicide Tendency in Adolescents. Journal of Discoveries in Applied and Natural Science, 1(1), 62-67.
6. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
7. Имонова, М. (2023). Musiqiy tarbiya-qudratli quroldir yohud musiqiy tarbiyaning shaxs shakllanishiga tasiri. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 35-37.



8. Имонова, М., & Таджиева, Д. (2023). Boshlangich sinf oquvchilarida milliy tarbiyani pedagogik va psixologik rivojlanishi qonuniyatlari. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 74-76.
9. Имонова, М. Б. (2023). ВАЖНОСТЬ СЕСТРОВЫХ ОТНОШЕНИЙ В ЛИЧНОМ РАЗВИТИИ. FORMATION OF PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY AS INTERDISCIPLINARY SCIENCES, 2(22), 120-123.
10. Имонова, М. Б. (2023). РОЛЬ ОТНОШЕНИЯ СИБЛИНГА В ПРОБУЖДЕНИИ МОТИВОВ ОБУЧЕНИЯ ДЕТЕЙ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(10), 101-104.
11. Имонова, М., & Тожиева, Д. (2023). Роль сиблинговых отношений в когнитивном развитии детей. Традиции и инновации в исследовании и преподавании языков, 1(1), 447-453.
12. Imonova, M., & Xoltorayeva, M. (2024). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMAT KO 'RSATISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO 'LLASHNING ZARURIYATI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 903-906.
13. Imonova, M. (2024). AMALIYOTCHI PSIXOLOG KADRLARNING UZLUKSIZ KASBIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING ORNI. Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 485-490.
14. Imanov, B. (2023). NEGATIVE FACTORS AFFECTING THE QUALITY OF EDUCATION AND WAYS TO ELIMINATE THEM. Science and innovation, 2(B3), 355-358.
15. Иманов, Б., & Имонова, М. (2021). Развитие творческих способностей учеников при выполнении проблемных экспериментов по физике с помощью инновационных технологий. Общество и инновации, 2(2), 222-227.
16. Ашурова, Ш. (2023). Оилада эр-хотин муносабатларини мувофиқлаштиришнинг ўзбек психологлари томонидан таҳлил қилиниши. Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 67-71.
17. Ashurova Sh. F. (2023) SOG'LOM PSIXOLOGIK TURMUSH TARZI TO'G'RISIDAGI TASVURLARNING SHAKLLANISHI "Журнал Педагогики и психологии в современном образовании, 3(1).
18. Ashurova Sh.F. (2022) A HEALTHY LIFESTYLE IN UZBEK FAMILIES FROM THE POINT OF VIEW OF ISLAM RELIGION Emergent: JOURNAL OF EDUCATIONAL DISCOVERIES AND LIFELONG LEARNING (EJEDL)
19. Ashurova, S. F., & qizi Karimova, M. N. (2023). OILADA O 'SMIRLARNING SOG'LOM TURMUSH TARZI VA OILAVIY HAYOT HAQIDAGI TASAVVURLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 363-368.
20. qizi Karimova, M. N., & Ashurova, S. F. (2023). PROFESSIONAL TA'LIMDA TAHSIL OLAYOTGAN QIZLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASH VA ULARDA



SOG 'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(5), 369-373.

21. qizi Ashurova, S. F. (2023). OILADA YOSHLARNING SOG 'LOM TURMUSH TARZIGA MUNOSABAT SHAKLLANISHINING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK OMILLARI MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(10), 32-35.

22. qizi Ashurova, S. F. (2023). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI PSIXOLOGIK VA PEDAGOGIK QO 'LLAB-QUVVATLASHDA PSIXOLOGIK XIZMATNING O 'ZIGA XOS JIHATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 418-421.

23. Неъматуллаева, С. (2020). Психология детей в возрасте 5-7 лет. Студенческий вестник, (5-1), 62-63.

24. Ne'Matullayeva, S. (2022). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO'LLASHGA OID QARASHLAR. Science and innovation, 1(B4), 444-449.

25. Nematullaeva, S. (2023). DEVELOPING COMMUNICATION SKILLS IN PRESCHOOL CHILDREN THROUGH GAME THERAPY. Horizon: Journal of Humanity and Artificial Intelligence, 2(4), 86-88.

26. Ne'matullayeva, S. (2022). Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida oyin terapiyasini qo'llashda innovatsion usullar. O 'zbekiston milliy universiteti xabarlar, 1(6).

27. Nematullaeva, S. (2023, April). The role of play therapy in a child's life. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 1, pp. 9-10).

28. Неъматуллаева, С. Х. (2023). Влияние Игровой Терапии В Формировании Личности Детей. Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(2), 31-33.

29. Kizi, N. S. K. (2022). Use of Game Therapy in Preschool Educational Organizations.

30. Нематуллаева, С. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarning shaxs sifatida kamolotida o'yin terapiyasining ahamiyati . Современные тенденции психологической службы в системе образования: теория и практика, 1(1), 43-46. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/psychological-service-education/article/view/23475>

31. qizi Ne'matullayeva, S. X., & Ulug'bek qizi Abduqahhorova, M. (2023). BOLA SHAXSINING RIVOJIDA O 'YIN TERAPIYASINI QO 'LLASH SHART-SHAROITLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(9), 341-344.